<i>Eshquvvatov To'lqinjon Eshquvvatovich, Buronova Durdona Erkin qizi</i>	
Maktabgacha ta'limda interfaol metodlar orqali integrativ faoliyatlarni tashkil etish	822
<i>Kubayeva Mavluda Baxtiyor qizi</i>	
Boshlang'ich ta'lim jarayonida mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari	826
<i>Mirzaqobilova Sarvinoz Aliqul qizi</i>	
Zamonaviy jamiyatda ekologik mediamadaniyatni shakllantirish masalalari	832
<i>Marziyayev Janabay Kalibayevich</i>	
Alisher Navoiyning "Mahlub ul-qulub" asari asosida o'quvchilarning axloqiy fazilatlarini shakllantirish	836
<i>Karamatova Dilfuza Sadinovna, Mahmudova Niginabonu Mizrof qizi, Ravshanova Mohinur O'tkir qizi</i>	
Pedagogik amaliyot jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy karyera loyihalash ko'nikmalarini shakllantirish	840
<i>Djalolova Sevara Xolmurodovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida inklyuziv ta'limni tashkil etishda innovatsion pedagogik texnologiyalar	845
<i>G'ulomova Dildora Shoirvna</i>	
Rus tilini o'qitishda grammatik kompetensiyani kommunikativ metod yordamida shakllantirish: qoidalardan jonli muloqotga o'tish metodikasi	850
<i>Arabova Muhiba Bazarovna</i>	
Bo'lajak musiqa o'qituvchisining kasbiy kompetentligini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida takomillashtirishning pedagogik muammo va ehtiyojlari	854
<i>Axrorova Munajat Mashraf qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy tafakkur ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik xususiyatlari	858
<i>Azizjonova Asilabonu Alisher qizi</i>	
Ta'limda innovatsion yondashuvlarning pedagogik-psixologik asoslari (pedagogik otm misolida).....	862
<i>Begmatova Dildora Saydaliyevna</i>	
Developing the Creativity of Primary School Students Through Art-Pedagogical Methods	866
<i>Dauletmuratova Bayramgul Makhsetbay kizi</i>	
Tabiiy fanlar darslarida kreativ ta'lim muhitini shakllantirishning innovatsion texnologiyalari va ularni takomillashtirish yo'llari	871
<i>Farmanova Parvina Jamshid qizi</i>	
Raqamli texnologiyalar yordamida arifmetik ko'nikmalarni mustahkamlash: zamonaviy ta'limdagi innovatsion yondashuvlar.....	875
<i>Izimbetova Amina</i>	
Matematika va o'yinlar nazariyasi: strategik qarorlarni modellashtirishda rivojlanish bosqichlari va amaliy ahamiyati.....	878
<i>Jumanazarova Shahzada</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish faoliyatini rivojlantirishning ilmiy nazariy asoslari	881
<i>Laylo Berdiqulova Erkin qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini integrativ yondashuv asosida o'stirish usullari.....	885
<i>Mamatraimova Dilshoda Chorshanbiyevna, Normengliyeva Sevinch Ulug'bek qizi</i>	
STEAM texnologiyasi vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativlikni rivojlantirish tamoyillari	889
<i>Nazirova Guzal Malikovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda maishiy ko'nikmalarni takomillashtirishning ilmiy nazariy asoslari.....	893
<i>Saydaliyeva Gavhar Burxon qizi</i>	

Fizika fanini o'qitishda formativ baholash asosida o'quvchilarning tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirish	896
<i>Sobirov Avazbek Anvarovich</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda ayrim emotsional holatlar (injiqlik va emotsional reaktivlik)ni boshqarish.....	903
<i>Sultonova Nurxon Anvarovna</i>	
Teatr pedagogikasi asosida bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirish modeli va metodlari	907
<i>Tolipova Shohista Qudrat qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida emotsional intellektni rivojlantirishda didaktik o'yinlarning roli	911
<i>Turg'unova Gulzoda Botir qizi</i>	
Farzand tarbiyasida onaning psixologik va axloqiy ta'sirining amaliy jihatlari	916
<i>Tuxtaboyeva Durdonaxon Tulkunovna</i>	
Ontogenezning turli bosqichlarida shaxsning axloqiy rivojlanish xususiyatlari	919
<i>Umaraliyev Muzaffarjon Muhammadjon o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'zlashtirishini metakognitiv monitoring qilish va baholashning nazariy-metodik asoslari	923
<i>Xalikova Zaxro Mirshadmanovna</i>	
Sun'iy intellekt texnologiyalarining psixologiyada qo'llanilishi	927
<i>Yoqubova Gulhayo Erkin qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim muassasalarida sun'iy intellektdan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari	931
<i>Bilolov Inomjon O'ktamovich</i>	
Karatening kelib chiqish tarixi	934
<i>Isayev Saidaliddinxon Islom o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ faollikni shakllantirishga doir usul va vositalar	937
<i>Nishonova Kamola Shokirjon qizi, Mamadjonova Hayotxon Abduolim qizi</i>	
Родительские установки и развитие личности	941
<i>Кодирова Нилуфар Абдусаттор кизи</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matnni tushunish ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi	945
<i>Yusupova Umida</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda liderlik va tashabbuskorlik sifatlarini rivojlantirish mexanizmlari	950
<i>Kadirova Omaxon Sobirjonovna</i>	
Maktab ta'limi tizimida raqamli boshqaruv modelini joriy etish orqali ta'lim sifatini oshirish	954
<i>Raxmatova Xurshida G'ofurovna, Tangirov Xurram Ergashevich</i>	
Особенности влияния психолога дошкольной образовательной организации на психическое развитие ребенка в игровой среде	961
<i>Камолдинова Диёра Жалолиддин қизи</i>	
Boshlang'ich maktabda sog'lom ijtimoiy-pedagogik muhitni shakllantirish yo'llari.....	968
<i>Fayzidinova Maxsuda Akmalovna</i>	
Maktabgacha ta'limda ma'naviy-axloqiy kompetentlikni shakllantirish: milliy va xalqaro pedagogik yondashuvlar	971
<i>N. R. Dushayeva</i>	
O'qish savodxonligini rivojlantirishda o'quvchilarning individual profili asosida moslashtirilgan didaktik yondashuvlarni ishlab chiqish.....	975
<i>Oripova Dilnozaxon Abduvosi qizi</i>	
Raqamli transformatsiya sharoitida oliy ta'lim tizimini rivojlantirish strategiyalari	980
<i>Rabbimova Munisxon Mustafoyevna</i>	
O'qitishda san'at vositalaridan foydalanish genezisi va zamonaviy tajribalari.....	983
<i>Suvanova Kamola Raimqul qizi</i>	
Sun'iy intellekt muhitida ta'lim olish jarayonida talabalarning psixofiziologik holati va kognitiv yuklamasini baholash	989
<i>Turayeva Irodaxon Lochinbek qizi</i>	



Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarning konfliktologik kompetentlikni rivojlantirish – dolzarb pedagogik muammo sifatida.....	993
<i>Xadicha Muxammadiyeva Karomatovna, R. Rayimova</i>	
The Influence of Digitalization on Written Communication.....	998
<i>Yusupova Sitara Ashuraliyevna</i>	
Boshlang'ich ta'lim o'qish savodxonligi va ona tili darslariga zamonaviy yondashuvlar.....	1002
<i>G'oyibnazarova Nargiza Raximjonovna</i>	
O'quvchilarning ijodiy ish faoliyati malakalarni shakllantirishga mos masalalarni tanlash metodlari.....	1005
<i>Artiqov Maqsud Bahodirovich, Sherimmatova Mahfuza Rasul qizi, Sarsenbayeva Zilola Kamiljon qizi</i>	
Mashq va topshiriqlar tizimi – fonetik ta'lim samaradorligini oshirish tizimi.....	1011
<i>Ganiyeva Dildora Sagdullayevna</i>	
Psixologik treninglarning uslubiy muammolari: nazariy va amaliy tahlil.....	1015
<i>Gulchehra Utamurodova Narbayevna</i>	
O'quvchilarning kreativ fikrlashlarini rivojlantirishda mental xaritalardan foydalanish imkoniyatlari.....	1018
<i>Islamova Karima Turdiyevna</i>	
Pedagogning kasbiy rivojlanishi va o'zaro xamkorlik.....	1023
<i>Karimova Gulchehra</i>	
Ta'lim boshqaruvida "yumshoq kuch" (soft skills): rahbar ayollarning psixologik va pedagogik mahorati...	1026
<i>Nomozova Roziya Omonovna</i>	
Ta'lim jarayonida psixologik muhitning ahamiyati.....	1029
<i>Qarshiboyeva Dilfuza Burliyevna</i>	
Boshlang'ich ta'limda raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektdan foydalanishning samaradorligi.....	1033
<i>Qo'chqorov Mirzavali</i>	
Tarbiyachi va bola o'rtasidagi muloqotning psixologik ahamiyati.....	1036
<i>Qodirova Malikaxon Kaxramonovna</i>	
Umumta'lim tizimida o'qituvchilarning sifat faoliyatini baholovchi tizim yaratish.....	1040
<i>Sharipova Umeda Tolibjonovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi nutq nuqsonli bolalarda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda zamonaviy logopedik va multimodal ta'lim texnologiyalarining samaradorligi.....	1045
<i>Hasanova Gulnoz Qosimovna, Jo'rayeva Gulibonu G'ayrat qizi</i>	
Musiqqa o'qituvchilarida ijrochilik mahoratini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari.....	1050
<i>Azimjonova Gulxayoxon Shuxratjon qizi</i>	
Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarni ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash pedagogik muammo sifatida.....	1053
<i>Shanazarov Otabek</i>	
Tarbiya fanida milliy-ma'naviy meros va hadislar asosida shaxsning ma'naviy-axloqiy kamolotini shakllantirishning ilmiy-pedagogik paradigmalari.....	1058
<i>Axmedov Boburjon Vasikovich</i>	
Pedagoglar malakasini oshirish samaradorligini baholash mezonlari.....	1063
<i>Muminova Nargiza Sabitdjanovna</i>	
Современная детская литература: тенденции, проблемы и воспитательный потенциал.....	1067
<i>Дустова Дилдора Собиржановна</i>	
Complex Variants of Congenital Cleft Palate: Surgical Attacks.....	1070
<i>Anvarova Muhtasar Anvarovna</i>	
Метод равных расстояний при делении угла с недоступной вершиной.....	1074
<i>Эсонов Мунавваржон Муқимжонович</i>	
Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarda shaxslararo munosabatlarni art-terapiya vositalari orqali korreksiyalash.....	1077
<i>Nig'matova Nodirabegim Lutfillo qizi</i>	



NUTQIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARDA SHAXSLARARO MUNOSABATLARNI ART- TERAPIYA VOSITALARI ORQALI KORREKSIYALASH

Nig'matova Nodirabegim Lutfillo qizi
Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti
Logopediya yo'nalishi MSPD-1U talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarda shaxslararo munosabatlarni rivojlantirishda art-terapiya metodlarining ahamiyati yoritilgan. Art-terapiyaning korreksion-pedagogik jarayondagi o'rni, uning bolaning emotsional holatini barqarorlashtirish, muloqotga kirishish qo'rquvini kamaytirish va kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishdagi imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, ranglar, shakllar va tasviriy obrazlar orqali bolaning ichki kechinmalarini aniqlash hamda art-terapiya vositalaridan diagnostik va korreksion maqsadlarda foydalanish yo'llari ochib berilgan. Tadqiqot natijalari art-terapiya usullarini logopedik amaliyotga tizimli joriy etishning samaradorligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: art-terapiya, nutq nuqsoni, shaxslararo munosabatlar, logopediya, korreksion pedagogika, emotsional holat, muloqot qo'rquvi, ranglar va shakllar, kommunikativ ko'nikmalar.

Abstract: This article examines the importance of art therapy methods in developing interpersonal relationships in children with speech disorders. The role of art therapy in the correctional and pedagogical process, its potential to stabilize emotional states, reduce communication anxiety, and develop communicative skills is analyzed. Special attention is given to the use of colors, shapes, and visual images as diagnostic and corrective tools for identifying children's inner experiences. The results demonstrate the effectiveness of systematically integrating art therapy into speech therapy practice.

Key words: art therapy, speech disorders, interpersonal relationships, speech therapy, correctional pedagogy, emotional state, communication anxiety, colors and shapes, communicative skills.

Аннотация: В данной статье рассматривается значение методов арт-терапии в развитии межличностных отношений у детей с нарушениями речи. Проанализирована роль арт-терапии в коррекционно-педагогическом процессе, ее возможности в стабилизации эмоционального состояния ребенка, снижении страха общения и формировании коммуникативных навыков. Особое внимание уделено использованию цветов, форм и изобразительных образов как диагностического и коррекционного средства для выявления внутренних переживаний ребенка. Результаты исследования подтверждают эффективность систематического применения арт-терапии в логопедической практике.

Ключевые слова: арт-терапия, нарушения речи, межличностные отношения, логопедия, коррекционная педагогика, эмоциональное состояние, страх общения, цвета и формы, коммуникативные навыки.

KIRISH

So'nggi yillarda psixologiya va logopediya sohalarida art-terapiya metodlarining ahamiyati sezilarli darajada ortib bormoqda. Zamonaviy korreksion pedagogika nutq nuqsonlariga ega bolalarni rehabilitatsiya qilishda faqat an'anaviy logopedik mashg'ulotlar bilan cheklanib qolmasdan, balki ularning shaxsiy, hissiy va ijodiy rivojlanishini ta'minlovchi innovatsion yondashuvlardan foydalanishni talab etadi. Shunday samarali metodlardan biri art-terapiya bo'lib, u bolalarda nutq faoliyatini faollashtirish, emotsional holatni barqarorlashtirish, o'z fikrini erkin ifoda etish hamda muloqot ko'nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Art-terapiya san'at vositalari orqali davolash va shaxsning o'z-o'zini anglashiga yo'naltirilgan psixoterapevtik yo'nalish bo'lib, bolalarning nutqiy, hissiy va ijodiy salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bolaning nutqini rivojlantirish bir vaqtning o'zida murakkab jarayon bo'lib, uning muvaffaqiyati ko'p hollarda, hatto dastlab unchalik sezilmaydigan omillarga ham bog'liq. Eng yaxshi natijalarga erishish uchun logoped-defektologlar har xil yoshdagi bolalar bilan ishlashda maxsus metodlardan foydalanadilar. Shunday usullardan biri art-terapiyadir. Keling, mutaxassislarni bu uslub nimasi bilan jalb etishi va uning bolalar nutqini rivojlantirishdagi foydasini ko'rib chiqamiz.

Art-terapiya bolalar rivojlanishiga qaratilgan kompleks yondashuv bo'lib, mashg'ulotlar psixologik, pedagogik va tibbiy omillarni o'z ichiga oladi, ammo uning asosida san'at turadi. Mazkur metodika nafaqat maktabgacha yoshdagi bolalarda, balki kattalarda ham muvaffaqiyatli qo'llaniladi. Terapevtik vosita sifatida quyidagilar ishlatiladi:

- tasviriy san'at;
- loydan yasash;
- kollaj va applikatsiyalar yaratish;
- ertak terapiyasi;
- musiqa terapiyasi.

Bolalar uchun san'at bu o'zini ifoda etish, his-tuyg'ularini va istaklarini namoyon qilish vositasidir. Ammo bu jarayonda bola yolg'iz bo'lmaydi: pedagog faol ishtirok etadi, bolaning faoliyatini tahlil qiladi, uning ehtiyojlari va xususiyatlarini aniqlaydi. Mashg'ulotlar mavjud qiyinchiliklarni bartaraf etish, xulq-atvorni to'g'rilashga ham yordam beradi. Art-terapiya har qanday yoshdagilar uchun qo'llansa-da, ayniqsa bolalarda yaxshi natija ko'rsatadi. Chunki yosh xususiyatlari tufayli ular ko'pincha his-tuyg'ulari yoki istaklarini so'z bilan ifodalay olmaydi. Art-terapiya ana shu to'siqni olib tashlaydi: bolalar o'zlarini san'at orqali, o'zlariga yoqadigan faoliyat yordamida erkin ifoda etadilar. Shu bois ular mashg'ulotlarda o'zlarini qulay his qilib, oson muloqotga kirishadilar.

Bolalar art-terapiyasining samaradorligini belgilovchi xususiyatlar quyidagilardan iborat:

- **yuqori ijodiy qobiliyatlar.** Kichik yoshda fantaziya va obrazli tafakkur yaxshi rivojlangan bo'ladi, kattalardagi cheklovchi qarashlar esa hali shakllanmagan bo'ladi;
- **o'yin shaklidagi mashg'ulotlar.** Bu shakl bolani qiziqtiradi, pedagog bilan ishonchli munosabat o'rnatadi;
- **stressning yo'qligi.** Qiziqarli jarayon tashvish darajasini pasaytiradi, bu esa nutq va kommunikativ ko'nikmalar rivojiga yordam beradi;
- **psixologik yordam.** Bolalar hissiyotlarini tushunishni, ularni boshqarishni o'rganadilar;
- **kompleks ta'sir.** Bu omillar bolalarning emotsional holatini barqarorlashtiradi, psixologik salomatligini mustahkamlaydi va nutq rivoji uchun zamin yaratadi.

Art-terapiya rejalashtirilgan mashg'ulotlar asosida olib boriladi. Unda ijodiy topshiriqlar psixologik texnikalar bilan uyg'unlashadi. Natijada bola atrof-muhitni tushunadi, o'zini anglaydi, yangi so'zlar bilan tanishadi, murakkabroq grammatik konstruksiyalarni o'zlashtiradi.

Nutq rivojida art-terapiyaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. **O'ziga ishonch hosil qilish.** Ichki qo'rquvlar, tushunilmaslikdan xavotirlanish nutq faolligini cheklashi mumkin. Ijod jarayoni bu to'siqlarni yengishga yordam beradi.
2. **Kognitiv funksiyalarni rivojlantirish.** E'tibor, xotira, tafakkur mustahkamlanadi, bu esa nutqning rivojlanishini tezlashtiradi.
3. **So'z boyligini kengaytirish.** Pedagog har bir harakatni sharhlaydi, bola esa o'z ishini tasvirlab beradi – passiv va faol lug'at boyiydi.
4. **Kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish.** Guruhli mashg'ulotlarda bolalar bir-biri bilan muloqot qiladilar, kelishadilar, fikr almashadilar.
5. **Mayda motorikani rivojlantirish.** Qo'l barmoqlarining rivoji nutq apparatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Chizish, kesish, yopishtirish, loydan yasash – bularning barchasi artikulyatsiyani faollashtiradi.

Muammoning dolzarbligi

5–6 yoshli bolalarda art-terapiya, ayniqsa tasviriy faoliyat, emotsional buzilishlarning oldini olish, rivojlantirish va korreksiyada eng samarali metodlardan biri ekanligi bilan bog'liq.

Katta maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy ehtiyojlari quyidagilardan iborat:

- muloqot;
- ijodiy faollik;
- syujetli-rolli o'yin;
- tasavvur faoliyati.



Chizish, hikoya to'qish, tasavvur qilish – bularning barchasi o'yin shaklidir. Bolaning ijodi proektiv xarakterga ega: u his-tuyg'ularini bevosita aytmay, chizishda yoki o'yinda ularni ifodalaydi. Bu jarayon:

- tashvish va agressiyani kamaytiradi;
- o'ziga ishonchni oshiradi;
- ijobiy emotsiyalar beradi;
- muloqot ko'nikmalarini shakllantiradi.

V.A. Averinning ta'kidlashicha, bu yoshda affektiv tasavvur bolaning o'z boshidan o'tkazgan travmatik tajribalarni qayta-qayta o'yin va chizish orqali "yuvib tashlash"ga yordam beradi. Shunday qilib, art-terapiya bolaga cheksiz o'zini ifoda etish, ijodiy rivojlanish, nutq va tafakkur faolligini oshirish imkonini beradi. Art-terapiya nutq rivojidadagi kechikishlar yoki korreksiyaga ehtiyoj bo'lgan hollarda ham samarali qo'llaniladi. U pedagogga bolaga to'g'ri yondashuv topishga, qo'rquvlarni yengishga, fikrlarini erkin ifodalashga va o'z-o'ziga bahosini oshirishga yordam beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Logopedik jarayonda art-terapiya usullarining qo'llanilishi nutq buzilishlarining psixologik sabablarini yumshatish, bolaning ichki kechinmalarini ifoda etish hamda kommunikativ faoliyatini rivojlantirish imkonini beradi. Ranglar bilan ishlash, qum terapiyasi, musiqa, haykaltaroshlik, qo'l mehnati, rasm chizish va drammatizatsiya elementlaridan foydalanish bolalarda ijobiy emotsional muhitni yaratadi, logopedik mashg'ulotlarning qiziqarliligini va samaradorligini oshiradi.

Art-terapiya usullaridan hozirgi kunda nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarning shaxslararo munosabatlarini rivojlantirishda keng foydalanilmoqda. Ushbu metodlar bolaning emotsional holatini barqarorlashtirish, ichki kechinmalarini erkin ifoda etish hamda muloqot jarayonidagi psixologik to'siqlarni bartaraf etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar ko'pincha tengdoshlari bilan muloqotda qiyinchiliklarga duch keladilar, bu esa ularning ijtimoiy faoligi va shaxs sifatida shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Art-terapiya esa so'z orqali ifodalash qiyin bo'lgan his-tuyg'ularni san'at vositalari orqali namoyon etish imkonini beradi. Zamonaviy korreksion pedagogika va logopediya amaliyotida rasm terapiyasi, qum terapiyasi, musiqiy terapiya, drammatizatsiya, haykaltaroshlik hamda jamoaviy ijodiy faoliyatlar shaxslararo munosabatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan samarali vositalar sifatida qo'llanilmoqda. Mazkur mashg'ulotlar jarayonida bolalar birgalikda faoliyat olib borish, o'z fikrini bilvosita ifodalash, boshqalarni tinglash va tushunish ko'nikmalarini egallaydilar. Natijada ularda hamkorlik, empatiya, o'zaro hurmat va ijtimoiy moslashuv kabi muhim shaxsiy sifatlar shakllanadi.

Art-terapiya asosida tashkil etilgan guruhiy mashg'ulotlar bolalarning muloqotga bo'lgan ehtiyojini kuchaytiradi, ularni tengdoshlari bilan ijobiy aloqalar o'rnatishga undaydi. Bu jarayonda bolaning o'ziga bo'lgan ishonchi ortib, muloqotdagi faoligi oshadi, shaxslararo munosabatlarda yuzaga keladigan qo'rquv va ichki to'siqlar asta-sekin kamayadi. Shu bilan birga, art-terapiya usullari bolaning nutqiy faolligini bilvosita rag'batlantirib, logopedik ish samaradorligini oshiradi.

Art-terapiya jarayonida foydalanilayotgan ranglar, shakllar va tasviriy obrazlar orqali bolada muloqotga kirishish qo'rquvining mavjudligi hamda uning psixologik sabablarini aniqlash mumkin. Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar ko'pincha o'z his-tuyg'ularini so'z orqali to'liq ifoda eta olmaganliklari sababli ichki kechinmalarini rasm, rang tanlovi va shakllar orqali namoyon etadilar. Masalan, to'q va sovuq ranglarning ustunligi, keskin va tartibsiz chiziqlar, yopiq shakllar bolaning ichki zo'riqishi, xavotiri yoki muloqotdan qochish holatini aks ettirishi mumkin. Aksincha, och ranglar, yumaloq va uyg'un shakllar bolaning emotsional holati nisbatan barqaror ekanligidan dalolat beradi. Endi art-terapiyaning keng tarqalgan turi – ertak terapiyasi haqida to'xtalamiz.

Ertak terapiyasi bu ijtimoiylashtirish va xalq tajribasini avlodlarga yetkazishning eng qadimiy usullaridan biridir. Metodologik nuqtai nazardan, ertak terapiyasi amaliy psixologiya yo'nalishlaridan biri bo'lib, unda asosiy ta'sir ko'rsatish vositasi sifatida ertakning metaforik resurslaridan foydalaniladi. Bu bolaning hali anglab yetilmagan ichki olamini ehtiyotkorlik bilan samarali aks ettirishga va unga zarar yetkazmasdan ta'sir ko'rsatishga, yoki bolaning o'z shaxsini chuqurroq anglashiga, hatto uning shaxsiyatidagi salbiy, o'rinsiz tajovuzkor mayllarni korreksiya qilishga yordam beradi. Metodning mohiyatini va undan foydalanish sohalarini tavsiflashga harakat qilamiz.

Ertak terapiyasi sessiyasi davomida olib boriladigan ishni uch yo'nalishda tasniflash mumkin: psixodiagnostik, prognostik va psixokorreksion (terapevtik).

Psixodiagnostik yo'nalish bola xulq-atvorida mavjud hayotiy ssenariylar va strategiyalarni aniqlashni ko'zda tutadi. Bu yo'nalishda bolaning xulq-atvorida namoyon bo'ladigan bazaviy hayotiy ssenariylar va strategiyalar tahlil qilinadi.

Prognostik yo'nalishda bolada mavjud hayotiy ssenariylarning mohiyati va o'ziga xos jihlatlarini istiqbolda imkon qadar to'liq ochib bera oladigan diagnostik ertak tahlili asosida voqealarning ehtimoliy rivoji aniqlanadi.

Psixokorreksion (terapevtik) ish yo'nalishi bolaga samarasiz hayotiy ssenariy yoki strategiyani foydalisiga almashtirishga yordam beradi. Ertak terapiyasi rivojlanishida kamchiligi bo'lgan bola shaxsiga emotsional-psixologik va pedagogik ta'sir ko'rsatish, uni ijtimoiy-axloqiy jihatdan shakllantirishning istiqbolli turlaridan biridir.

Ertak terapiyasi usuli rivojlanishida turli xil buzilishlarga ega bolalar bilan ishlovchi mutaxassislar tomonidan o'yin terapiyasi va san'at terapiyasi bilan birgalikda qo'llaniladi. Har qanday ertak qahramoni bilan o'zini identifikatsiya qilgan bola o'zining harakatlarini yangi tarzda rasmda va o'yinda aks ettiradi, ijodiy va tashabbuskor jarayonlarni rag'batlantiradi, o'z his-tuyg'ulari va xayollari uchun chiqish yo'lini topadi, turli vaziyatlarda o'z munosabatlarini qayta quradi va ayrim travmatik obrazlar bilan og'riqsiz muloqot qiladi.

Ertaklardagi konstruktiv g'oyalar, ya'ni hamma narsani yaxshilash va eng yaxshi tomonga o'zgartirish mumkinligi haqidagi mazmun, rivojlanishida buzilishlari bo'lgan bolalarning ongini ijobiy tarzda o'zgartirishga yordam beradi, ya'ni psixoterapevtik ta'sir ko'rsatadi. Ertak terapiyasi usuli bolalarni maxsus tarbiya va o'quv jarayonlariga tayyorlashda yanada kengroq qo'llanilishi zarur. Shunday qilib, rivojlanishida biron-bir patologiyaga ega bolalarning ijtimoiy muhitga bo'lgan munosabatini, ularning yangi vaziyatlarga nisbatan ijobiy va to'g'ri tasavvurlarini shakllantirish uchun maxsus yordamni qabul qilishga tayyorlash zarur. Bizning fikrimizcha, bu jarayonni ertak terapiyasi usuli orqali samarali amalga oshirish mumkin.

Ijtimoiy vaziyat ostida biz boshqa odamlar, ya'ni jamiyat vakillari bilan muloqotni tushunamiz. Bunday muloqot kattalar tashabbusiga binoan yuzaga keladi va bu bolalar uchun o'z hududida yoki boshqa joylarda sodir bo'lishi mumkin. Yangi, noma'lum vaziyat bolaning hayotida yuzaga kelganda, ba'zan hatto qarama-qarshi hissiy reaksiyalarni keltirib chiqaradi. Agar bola sog'lom rivojlansa va oilaviy atmosfera ijobiy bo'lsa, asosiy emotsiyalar ham ijobiy bo'ladi. Bunday bola dunyoga ishonadi, yangi ijtimoiy vaziyatga qiziqish bildiradi, uni tushunishga, moslashishga va biror narsani o'rganishga intiladi.

Rivojlanishida buzilishlari bo'lgan bolalar esa ko'pincha ijtimoiy vaziyatni tushunishda, uni talqin qilishda va yo'nalishini aniqlashda qiyinchiliklarga duch keladilar, uni qanday rivojlanishini bashorat qilishda qiynaladilar. Shu bilan birga, yangi narsalarga bo'lgan salbiy munosabat kuchayadi, xavotir va qo'rquv to'planadi va ba'zan yangi odamlar bilan tanishishdan, bolalar bog'chasiga yoki maktabga borishdan, defektolog, logoped va psixolog bilan mashg'ulotlarga qatnashishdan bosh tortishga olib keladi. Shifokorga tashrif buyurish esa butun oila uchun haqiqiy azobga aylanishi mumkin.

Rivojlanishida nuqsoni bo'lmagan bola yangi ijtimoiy vaziyatga kirganda savollar beradi, oldindan tushuntirishni talab qiladi. Bu tabiiy reaksiyalar ba'zan kattalarni asabiylashtirishi mumkin. Ota-onalar esa har doim ham bolaga yangi ijtimoiy vaziyat haqida ijobiy tasavvur hosil qiladigan tarzda javob bera olmaydilar. Nutq va psixologik rivojlanishida buzilishlari bo'lgan bolalar esa savollarni shakllantirishda va ularga javob topishda yanada ko'proq qiyinchiliklarga duch keladilar. Yomonlikni kutish, og'riqdan qo'rqish, xato qilishdan qo'rqish, kulgi va kamsitishdan qo'rqish va boshqa ko'plab hissiyotlar to'planib boradi. Bunday bolalarda salbiy hayajonning hissiy "sarmoyasi" shakllanadi va bu holat maksimal darajaga yetib, baland yig'lash yoki yengilmas qarshilik bilan yakunlanadi. Bunday salbiy xulq-atvor shakllari bolaning himoya reaksiyasidir.

Shunday holatlarning oldini olish uchun bolalarga yordam berish, ularni yangi ijtimoiy vaziyatga oldindan tayyorlash zarur. Kattalarning tushuntirishlari, agar ular obrazli va bolaga tushunarli tilda bo'lmasa, aksincha, bolani yanada ko'proq qo'rqitishi mumkin. Masalan, bir kuni bolalar bog'chasida psixologning kelishi oldidan bolalar: "Nima qilasiz?" deb savol berganlarida, ularga "sinovdan o'tkazamiz" deb javob berilgan. Natijada ko'plab bolalar mutaxassisdan yashirinib qolganlar va muloqotdan bosh tortganlar.

Shu sababli biz didaktik va psixokorrektiv ertaklardan foydalanishni tavsiya qilamiz. Ularning vazifalari quyidagilar:

- bolani obrazli va tushunarli shaklda yangi ijtimoiy vaziyat bilan tanishtirish;
- yangi ijtimoiy vaziyatga nisbatan salbiy munosabatni o'zgartirish;
- yangi ijtimoiy vaziyatda to'g'ri xulq-atvorni o'rgatish.

Ushbu ertaklar psixoterapevtik vazifalarni to'liq o'z ichiga olmaydi, chunki ular bolaning shaxsiyatida chuqur o'zgarishlar yasashga yo'naltirilmagan, uni fobiyalardan yoki boshqa hissiy buzilishlardan "davolash"ni emas, balki vaziyatga moslashishdagi salbiy reaksiyalarni yumshatishni, o'rgatishni va yangi ijtimoiy vaziyatga tayyorlashni ko'zda tutadi.

Ertak terapiyasini maxsus psixologik amaliyotda qo'llash texnologiyasiga ko'ra, ertaklar avval ota-onalar yoki mutaxassislar tomonidan tayyorlanadi. Ijtimoiy vaziyat kattalar tomonidan o'rganiladi, aniq obrazlar belgilanadi, muhim asosiy shaxslar, harakatlar va ularning nomlari aniqlab olinadi.



Mazkur diagnostik kuzatuvlar asosida mutaxassis bolaning muloqotga kirishishdagi qo'rquvi va ichki psixologik to'siqlarining sabablarini aniqlaydi. Olingan ma'lumotlarga tayangan holda art-terapiya korreksion vosita sifatida maqsadli ravishda qo'llaniladi. Ya'ni ranglar bilan ishlash, erkin rasm chizish, jamoaviy tasviriy faoliyat, qum terapiyasi va drammatizatsiya mashg'ulotlari orqali bolada ijobiy emotsional tajriba shakllantiriladi, xavotir darajasi kamaytiriladi va muloqotga bo'lgan motivatsiya oshiriladi.

Shuningdek, art-terapiya mashg'ulotlarida bolaga o'z ishini izohlash, rasm mazmuni haqida fikr bildirish imkoniyatining yaratilishi nutqiy faollikni rag'batlantiradi hamda kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantiradi. Guruhiy ijodiy faoliyat jarayonida esa bolalar bir-biri bilan hamkorlik qilishni, o'zaro tushunishni va emotsional aloqa o'rnatishni o'rganadilar. Bu esa muloqotga kirishish qo'rquvining asta-sekin bartaraf etilishiga xizmat qiladi.

Demak, art-terapiyada qo'llaniladigan ranglar va shakllarning tahlili diagnostik ahamiyatga ega bo'lish bilan birga, ularni korreksion maqsadda to'g'ri tanlash nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarda shaxslararo munosabatlarni rivojlantirishda samarali pedagogik vosita hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, art-terapiya metodlari nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan korreksion-pedagogik jarayonda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu yondashuv bolaning nutqiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash bilan birga, uning emotsional holatini barqarorlashtirish, ichki kechinmalarini erkin ifoda etish hamda shaxslararo munosabatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Art-terapiya vositalari orqali bolalarda muloqotga kirishishdagi psixologik to'siqlarni aniqlash va ularni bartaraf etish imkoniyati yaratiladi. Bu esa ijtimoiy moslashuv jarayonining samaradorligini oshirishga yordam beradi. Art-terapiya jarayonida qo'llaniladigan ranglar, shakllar va tasviriy obrazlarning tahlili bolaning ichki holatini diagnostika qilishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur diagnostik ma'lumotlar asosida korreksion ishlar maqsadli va individual tarzda rejalashtiriladi. Natijada bolaning o'ziga bo'lgan ishonchi ortadi, muloqotga bo'lgan motivatsiyasi kuchayadi hamda kommunikativ ko'nikmalari bosqichma-bosqich shakllanadi.

Shunday qilib, art-terapiya metodlarini logopedik va korreksion-pedagogik faoliyatga tizimli ravishda joriy etish nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarda shaxslararo munosabatlarni rivojlantirish, emotsional farovonlikni ta'minlash hamda ularning jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyasiga erishishda samarali pedagogik vosita hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Волкова Л. С. (ред.). Логопедия. – Москва, 2003.
2. Ляпидевский С. С. Невропатология. – Москва, 2001.
3. Болибеков А. А., Эгамбердиева М. Г. Совместная работа воспитателя и логопеда дошкольного учреждения по устранению речевых нарушений у детей // Вестник науки и образования. – 2020. – № 10 (88). – С. 60–62. – URL: <http://scientificjournal.ru/images/PDF/2020/88/VNQ-10-88-III-.pdf> (дата обращения: 12.11.2020).
4. Kayumova D. F. Bolalar nutqini rivojlantirishda art-terapiyaning o'rni // Mezhdunarodnyy nauchnyy zhurnal. – 2023. – № 13 (100). – Chast 1.
5. Елсакова А. Н., Лисовская Н. Н., Соколова И. В. Использование инновационных технологий в работе учителя-логопеда // Педагогика: традиции и инновации: материалы Междунар. науч. конф. (г. Челябинск, июнь 2014 г.). – Челябинск: Два комсомольца, 2014. – С. 33–34.
6. Силиванова Л. В., Кондратьева С. Ю. Игры с песком в работе логопеда // Логопед в детском саду. – 2008. – № 3. – С. 38–41.
7. Волкова Л. С., Селиверстов В. И. (ред.). Хрестоматия по логопедии. – Т. 1. – Москва, 1997.
8. Филичева Т. Б. и др. Дети с фонетико-фонематическим недоразвитием. – Москва: ГНОМ и Д, 2000.
9. Ковшиков В. А. Экспрессивная алалия и методы её преодоления. – Санкт-Петербург: КАРО, 2006. – 12 с.
10. Mo'minova L. R., Amirsaidova Sh. M., Mamarajabova Z. N., Xamidova M. U., Yakubjanova D. B., Jalolova Z. M., Abidova N. Z. Maxsus psixologiya. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2013. – 157 b.
11. Ayupova M. Y. Logopediya. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2019. – 560 b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №3(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.